TOSHKENT ME’MORCHILIGIDAGI MOZAIKALARNING MATERIAL-TEXNIK XUSUSIYATLARI VA BADIIY YECHIMLARI

Xusniddinova Muslimaxon Doniyor qizi
san’atshunos

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Toshkent shahridagi monumental mozaika san’ati namunalari materiallarning xususiyatlari, mozaika elementlarining shakli va ularni kompozitsion joylashtirish usullari asosida ikki guruhga ajratib o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mozaika asarlarini yaratishda foydalanilgan materiallar hamda alohida elementlarning shakliy xususiyatlari yaxlit badiiy obrazning shakllanishiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat. Birinchi guruhga marmar, turli tabiiy toshlar, yarim qimmatbaho minerallar, keramik plitkalar va boshqa materiallardan tayyorlangan, o‘lchami hamda shakli tasvirning mazmuni va kompozitsion yechimiga mos ravishda tanlangan bo‘laklar yordamida yaratilgan mozaikalar kiritiladi. Bunday asarlarda materialning tabiiy rangi, fakturasi, yorug‘likni aks ettirish xususiyati va bo‘laklarning individual shakli tasvirning plastik ifodadorligini kuchaytirishi mumkin. Ikkinchi guruhni esa, asosan, bir xil yoki o‘zaro yaqin o‘lcham va shakldagi mozaika elementlarini muntazam joylashtirish orqali yaxlit tasvir hosil qilingan namunalar tashkil etadi. Ushbu turdagi mozaikalarda badiiy obraz alohida bo‘laklarning shakliy xilma-xilligidan ko‘ra, ularning o‘zaro munosabati, ranglar uyg‘unligi, ritmik takrorlanishi va umumiy kompozitsion tuzilishi orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur ikki guruhning qiyosiy tahlili orqali material tanlovi, elementlar shakli va ularni terish texnikasining tasviriy ifoda vositalari bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Maqolada Toshkent shahridagi monumental mozaika namunalari misolida mazkur xususiyatlarning badiiy obraz, tasvirning hajmiy-plastik ifodasi, ranglar munosabati va kompozitsion yaxlitlikka ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mozaika elementlarining shakli va joylashtirilishidagi farqlar asarning tomoshabinga vizual ta’siri, tasvirning idrok etilishi hamda me’moriy muhit bilan uyg‘unlashuviga qanday ta’sir ko‘rsatishi masalalariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot Toshkent monumental mozaika san’atini material, texnologiya va badiiy ifoda o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, shahardagi mozaika merosini tasniflash va uning badiiy xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent, monumental mozaika, me’moriy bezak, tabiiy tosh, marmar, keramik mozaika, mozaika elementlari, material, faktura, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya, badiiy obraz, tasviriy ifoda, me’moriy muhit.*

Аннотация. *В данной статье образцы монументального мозаичного искусства города Ташкента рассматриваются с точки зрения особенностей используемых материалов, формы мозаичных элементов и способов их композиционного расположения. Основная цель исследования заключается в определении степени влияния материалов и формы отдельных элементов на формирование целостного художественного образа. К первой группе относятся мозаики, созданные из мрамора, различных природных камней, полудрагоценных минералов, керамических плиток и других материалов, фрагменты которых отличаются разнообразием форм и размеров и подбираются в соответствии с содержанием изображения и композиционным решением. В таких произведениях*

естественный цвет, фактура материала, его способность отражать свет и индивидуальная форма отдельных фрагментов могут усиливать пластическую выразительность изображения.

Вторую группу составляют мозаичные произведения, в которых целостное изображение формируется посредством регулярного расположения элементов одинаковой или близкой формы и размера. В подобных мозаиках художественный образ раскрывается преимущественно через взаимодействие отдельных элементов, гармонию цветовых сочетаний, ритмическое повторение и общую композиционную структуру, а не через разнообразие форм отдельных фрагментов. Сравнительный анализ двух групп позволяет выявить взаимосвязь между выбором материала, формой элементов, техникой их укладки и средствами художественной выразительности.

На примере образцов монументальной мозаики Ташкента анализируется влияние указанных особенностей на формирование художественного образа, пластическую выразительность изображения, цветовые отношения и композиционную целостность. Особое внимание уделяется тому, как различия в форме и расположении мозаичных элементов влияют на визуальное воздействие произведения, восприятие изображения зрителем и его гармоничное взаимодействие с архитектурной средой. Исследование направлено на изучение ташкентского монументального мозаичного искусства с позиции взаимосвязи материала, технологии и художественной выразительности, а также способствует классификации мозаичного наследия города и более глубокому пониманию его художественных особенностей.

Ключевые слова: *Ташкент, монументальная мозаика, архитектурный декор, природный камень, мрамор, керамическая мозаика, элементы мозаики, материал, фактура, цветовая гармония, композиция, художественный образ, художественная выразительность, архитектурная среда.*

Abstract. *This article examines examples of monumental mosaic art in Tashkent in terms of the materials used, the shapes of mosaic tesserae, and the methods of their compositional arrangement. The primary aim of the study is to determine the extent to which the materials and shapes of individual elements influence the formation of an integrated artistic image. The first group comprises mosaics made from marble, various natural stones, semi-precious minerals, ceramic tiles, and other materials, in which fragments of different shapes and sizes are selected according to the subject matter and compositional design of the image. In such works, the natural color, texture, light-reflecting properties, and individual shapes of the fragments may enhance the plastic expressiveness of the image.*

The second group consists of mosaic works in which a unified image is created through the regular arrangement of elements of identical or similar shapes and sizes. In these mosaics, the artistic image is expressed primarily through the interaction of individual elements, color harmony, rhythmic repetition, and the overall compositional structure, rather than through the diversity of fragment shapes. A comparative analysis of these two groups makes it possible to identify the relationship between material selection, the shape of the elements, installation techniques, and the means of artistic expression.

Using examples of monumental mosaics in Tashkent, the article analyzes how these characteristics influence the artistic image, the plastic expressiveness of the depiction, color relationships, and compositional integrity. Particular attention is paid to how differences in the shape and arrangement of mosaic elements affect the visual impact of the artwork, the viewer’s

perception of the image, and its integration into the architectural environment. The study aims to explore Tashkent’s monumental mosaic art through the relationship between material, technique, and artistic expression, contributing to the classification of the city’s mosaic heritage and a deeper understanding of its artistic characteristics.

Keywords: *Tashkent, monumental mosaic, architectural decoration, natural stone, marble, ceramic mosaic, mosaic tesserae, material, texture, color harmony, composition, artistic image, artistic expression, architectural environment.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.12.2023 yildagi PQ-405-sonli «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida[1]» qaroriga muvofiq tarzda Toshkent shahrida bugungi kunda madaniy meros royhatiga kiritilgan mozaikalarni badiiy nuqtai nazardan o‘rganish ularni tizimlashtirish va kompazitsion yechimlarini topish zarur. Me’moriy inshootning badiiy qiyofasi uning shakli va hajmi bilangina belgilanmaydi. Binoning tashqi yoki ichki muhitida qo‘llanilgan bezaklar ham me’moriy yechimning mazmunini ochib berish, unga o‘ziga xos vizual xarakter bag‘ishlashda ishtirok etadi. Monumental mozaika ana shunday badiiy vositalardan biri bo‘lib, unda tasvir alohida elementlarning muayyan tartibda birlashtirilishi orqali yuzaga keladi. Bunda yakuniy natija faqat rassom tanlagan mavzu yoki ranglarga emas, balki mozaikani tashkil etuvchi bo‘laklarning shakli, o‘lchami, materiali va o‘zaro joylashishiga ham bog‘liq. Toshkent shahrida saqlanib qolgan monumental mozaikalar qadr qimmati ularni saqlab qolish haqida turli maqolalarda mumkin.

Mualliflarning g‘oyasiga ko‘ra, mozaik pannolar shaharning yangi turar-joy massivlaridagi bir xil ko‘rinishdagi binolarga yorqin ranglar baxsh etishi kerak edi. Dastlab shahar rasmiylari loyihaga biroz sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ushbu yorqin obyektlar Toshkentning me’moriy kodining bir qismiga aylangan[2].

Bu mozaikalar ushbu masalani amaliy jihatdan o‘rganish uchun muhim material beradi. Ayrim namunalarda marmar, tabiiy toshlar, mineral materiallar yoki keramik qismlarning rang va shakl xususiyatlaridan foydalanilgan. bo‘lsa, boshqalarida muntazam shakldagi elementlarni ketma-ket joylashtirish orqali murakkab tasvirlar hosil qilingan. Demak, mozaikalarni faqat tasvirlangan mavzu yoki bezak vazifasi asosida o‘rganish ularning badiiy tuzilishidagi muhim farqlarni to‘liq ochib bermaydi.Mozaika elementlarining shakli va joylashtirilish usuli asarning umumiy ko‘rinishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi alohida tahlilni talab qiladi. Tasvirning ayrim qismlariga moslab kesilgan turli shakldagi bo‘laklar chiziqlar, konturlar va shakllarning nozik o‘zgarishlarini ifodalash imkonini berishi mumkin. O‘lchami va shakli bir xil elementlardan tuzilgan mozaikalarda esa tasvir ko‘proq ranglar nisbati, elementlarning takrorlanishi va umumiy kompozitsion tartib orqali shakllanadi. Biroq bu xususiyatlarni qat’iy qarama-qarshilik sifatida emas, balki har bir asarning material va texnik imkoniyatlari bilan bog‘liq holda baholash lozim..

Toshkent shahridagi monumental mozaika namunalarini elementlarning shakliy xususiyatlari va tasvirni hosil qilish usullari asosida ikki guruhga ajratadigan bo‘lsak 1966 yilda Mazitov Alfred Faridovich tomonidan ishlangan keramikali mozaika, Uchtepa tumanidagi ko‘pqavatli turar joy binosi tashqi devoriga ishlangan 1967 yilga tegishli muallifi noma’lum

[1] https://lex.uz/uz/doc-passport/-6713096?utm_source

[2] https://www.google.com/url?opi=89978449&q=https://locauz.com/uz/places/toshkent/toshkent-mozaikalari&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwjcxNOthtOXAxVnAtsEHUQlMCIQFnoECEIQAQ&usg=AOvVaw0PACaHdMtpAhZh4h0-bBrY

bo‘lgan mozaika, 1970 yilda ishlangan yakkasaroy tumanidagi Rakatboshi kochasi15-uyga ishlangan mozaikalardagi yaxlit tasvir keramikaning turli shaklda bo‘laklardan hosil qilingan bo‘lib bu usul ulardagi tasvirni yanada aniq chiqishiga yordam bergan. Bunda tomoshabin tezda yaxlit tasvirni ko’radi va his qiladi. Tasvirdagi nozik chiziqli joylar yoki inson qiyofasidagi yuz bo‘laklari ko‘z burun va lab qismlari har biri o‘ziga xos shaklda ishlobvberilgan keramika bo‘laklari bilan yanada aniq ishlangan. Mayda detallarni ham ko‘rsatish imkoni bor. Toshkent television minorasi bino markazida joylashgan abdumalik Buxorboyevning turli rangdagi yaqrm qimmatbaho va qimmatbaho toshlardan ishlangan pannosida ham aynan toshlar turlicha shaklda kesilgan bo‘lib uning texnikasi toshni nafaqat shakli balki rangini ham o‘ziga xos tarzda joylashtirib turli tasvirlarni hosil qilgan. Xususan yuz qiyofalarida bundan mohirona foydalanganilganini guvohi bo‘lamiz.

Ikkinchi turdagi mozaikalarda esa barcha tosh bo‘laklari bir xilligi bilan ko‘zga tashlanib turadi.bularga bir qancha turar joy binolaridagi mazaikalar, ba’zi metro bekatlaridagi mozaikalar va Toshkent television minorasi ichki bezagidagi A.buxorboyevning ikkinchi pannosini kiritishimiz mumkin.

Olmazor bekatiga bir nechta ranglardan foydalanilgan smaltadan ishlangan mozaika ham shu kabi smaltaning shakli barchasi bir xil shaklda ular hajm va rang jihatdan farq qilishi mumkin. Ushbu pannoda yulduzsimon abstract tasvir ishlangan. Paxtakor bekatida ham sariq yorqin ranglardan foydalanilgan pannoda smaltadan foydalanib huddi shu uslubda tasvir shakllantirilgan bo‘lib smaltaning chiroqda yaltrashi tasvirda atrofga tomon shakllar kengayib ranglar uyg‘unlashuvi barchasi birgalikda pannodan nur taralayotgandek ko‘rsatadi. Bundan tashqari 1967 yilga tegishli Uchtepa tumanida 24-mavze 3-uy binosi yon tomoniga ishlangan mozaika,1970-yilga tegishli yunusobod tumani Chingiz Aytmatov ko‘chasida 1a uy tashqi devoriga ishlangan Jarskiy Nikolay Vasilevichning keramikadan ishlangan mozaikali pannosi ham shular jumlasidan. Mozaikaning bunday bir xil shakl bir xil hajmdagi bo‘laklardan yeg‘ilgani ham o‘ziga xos o‘zgacha taassurot uyg‘otadi bir xil kataklarni bir maromda davom etishi tartibi bir qarashda ko‘zni o‘ziga jalb etadi.

Tadqiqot davomida turli shakl va o‘lchamdagi bo‘laklardan tuzilgan kompozitsiyalar bilan bir xil yoki standart shakldagi elementlar asosida yaratilgan mozaikalarning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor material va texnik yechimlarning tasvirning plastik ifodasi, ranglar uyg‘unligi, kompozitsion yaxlitligi hamda badiiy obrazning shakllanishidagi o‘rniga qaratiladi. Bunday yondashuv Toshkent monumental mozaikalarini nafaqat me’moriy bezak sifatida, balki o‘ziga xos tasviriy qonuniyatlarga ega san’at asarlari sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ле Корбюзье. Архитектура XX века. М., 1970.
2. Кадырова Т. Пути архитектурного возрождения Узбекистана за XXI вв. (Традиsии и современность) Т., 2007.
3. Qodirova.T, K.Babiyvskiy, F.Tursunov. Архитектура Советского Узбекистана. М., 1972.
4. Кадырова Т. Архитектура Советского Узбекистана – М.: 1987.
5. Ле Корбюзье. Архитектура XX века. М., 1970.
6. https://lex.uz/uz/doc-passport/-6713096?utm_source

7. Iroda TOSHMATOVA,“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Maqola “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2025-yil 29-may, 108 sonida chop etilgan
8. https://www.google.com/url?opi=89978449&q=https://locauz.com/uz/places/toshkent/toshkent-mozaikalari&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwjcxNOthtOXAxVnAtsEHUQlMCIQFnoECEIQAQ&usg=AOvVaw0PACaHdMtpAhZh4h0-bBrY